

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

O‘ZBEK VA TURK XALQ ERTAKLARIDA KAL OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI

Nilufar Xasanovna SHNAZAROVA,

O‘zbek tili va adabiyoti va folklori instituti (PhD) doktoranti

[e-mail: eshnazarovan@gmail.com](mailto:eshnazarovan@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290816>

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek va turk ertaklaridagi yetakchi bo‘lgan “kal” obrazi va unga yuklangan ijtimoiy vazifa, badiiy mazmun va mohiyatga bag‘islangan. Turkiy xalqlar folkloridan keng o‘rin olgan ushbu obrazga xos xususiyatlar o‘zbek va turk ertaklari tahlili misolida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kal, kallik, folklor, masal, ertak, janriy xususiyatlar, xayoliy-fantastik ertak, satirik ertak, yumoristik ertak, ertakchilik, ertakshunoslik.

Аннотация. Данная статья посвящена ведущему в узбекских и турецких сказках образу «плешивый» («кал»), а также его социальная функция, художественное содержание и смысл. Особенности широко распространенного среди тюркских народов образа лысого проанализированы на примере узбекских и турецких сказок.

Ключевые слова: плешивый, плешивость, фольклор, басня, сказка, жанровые особенности, фантастические сказки, сатирические сказки, юмористические сказки, сказкотворчество, сказковедение.

Abstract. This article is dedicated to the prominent character of the “bald man” (“kal”) in Uzbek and Turkish fairy tales, as well as his social function, artistic content, and meaning. The features of this widely known character among Turkic peoples are analyzed through the example of Uzbek and Turkish tales.

Keywords: bald, baldness, folklore, fable, fairy tale, genre features, fantastic fairy tales, satirical fairy tales, humorous fairy tales, fairy tale creation, fairy tale studies.

Kalning hech narsa bilmagani otni hurkitar.

(Xalq hikmati)

“Kal” so‘zining kelib chiqishi makon va zamon e‘tibori bilan tekshirilganda uzoq davrlarga borib taqaladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida xalq qahramoni sifatida tan olingan bu obraz barcha turkiy xalqlar orasida ma‘lum va mashhurdir. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodining ko‘pgina janrlarida “kal” obrazi yetakchi siymo sifatida namoyon bo‘lishi insoniyat tafakkurining, ayniqsa, turkiy xalqlar idrokining mushtarakligini ko‘rsatadi. Bu obrazni turkiy xalqlarni umumlashtiruvchi o‘ziga xos obraz sifatida o‘rganish ularning ma‘naviy olami, dunyoqarashi, olam va odamga munosabatidagi o‘xshash va ayri jihatlarini ochib berish imkonini beradi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Turk ertaklari sirasida alohida turkum sifatida tanilgan ertak qahramoni “Kalo‘g‘lon”, qozoq qardoshlarimizda “Tazcha bola”, ozarbayjon xalq og‘zaki ijodida “Kachal Muhammad” yoki “Kachal polvon”, turkmanlarda “Kalcha botir”, qrimlarda “Tazo‘g‘lon”, oltoylarda “Tastarakay”, o‘zbeklarda shunchaki “Kal” nomi O‘rta Osiyo xalqlari orasida shaklan turfa bo‘lsa-da, mazmunan bir xil.

“Kal” so‘zi mazmunan sochi to‘kilganlikni bildiradi. Bundan tashqari “kal” dono kishining nomi, keyinchalik esa shu nom – “kal” donishmandlarga ko‘chirilgan bo‘lishi ham mumkin. Shundan so‘ng “kal” donolik ramziga aylangan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Hind tilida ham “kal” so‘zi uchraydi, biroq bu so‘z “chaqqonlik” ma‘nosini ifodalaydi. [Имомов К. 1:51] Kal haqidagi ertaklarning mavjudligi juda qadimga borib taqalishidan bu obrazning ham qadim zamonlardan beri xalq qahramoni sifatida tan olinganligini anglatadi. Haqiqatdan ham bu qahramon xalq og‘zaki ijodining ko‘pgina janrlarida el nazari tushgan, xalq e‘tiborini, odamlar mehrini qozongan yoki yana ko‘pgina ijtimoiy sifatlar tashuvchisi sifatida ko‘zga tashlanadi. Buni bir necha o‘nlab o‘zbek xalq ertaklarining shu qahramon sarguzashti va qahramonliklariga bag‘ishlangani, turk xalq ertaklaridagi “Kalo‘g‘lon” turkumidagi hatto yuzlab ertaklarning mavjudligi, yoki dostonlarimizda ham bu obrazlar alohida o‘ringa egaligi fikrimizni dalillaydi. Ayniqsa, Ergash Jumanbulbul o‘gli bu obrazga alohida hurmat va e‘tibor bilan munosabatda bo‘lgan. “Nimagaki, bu kal juda katta, zo‘r kal edi”. [Жуманбулбул ўғли Э. 2:57] “Qunduz bilan Yulduz” dostonida bu obraz bosh qahramonning jangovar do‘sti – ko‘makchi obraz sifatida: bilagi kuchga to‘lgan, g‘ayrat-shijoatli, harakatchan qahramon sifatida tasvirlanadi. “Ravshanxon” dostonida esa Aynaq, Jaynaq, Ersak, Tersak, Janjal kallar xalq qasoskorlari sifatida zamonasining zulmli siyosatiga qarshi kurashuvchan obrazlar sifatida gavdalanadi: Aynoq kal – polvon edi, o‘zi juda zo‘r edi, urush-surish bo‘lsa, mingga barobar edi. Jaynoq kal – masxaraboz edi, har tusli bo‘laverar edi. Agar birovni aldamoqchi bo‘lsa, har tusli bo‘lganda o‘zining jo‘radoshini ham tanimas edi. Tersak kal – sinchi edi. Yilqining tulporini suyagidan tanir edi. Qilichning o‘tkirini qinidan bilar edi. Ersak kal – juda mergan edi. Qushlarning dodini berar edi. Oqshomlari kamonini qo‘liga olsa, qushni ko‘zidan urar edi. Akakalarning barisi durust kallar edi. [Жуманбулбул ўғли Э. 3:195] Umuman aytganda, ushbu kallar o‘z davri uchun insonparvarlik, vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik ifodasi sifatida gavdalantiriladi.

Turk folklorshunosligida esa Tohir Alangu o‘zining “Kalo‘g‘lon ertaklari” to‘plamining so‘ngso‘zida Kalo‘g‘lon tipining faqat ertaklarda emas, balki xalq

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

og‘zaki ijodining boshqa janrlarida ham uchrashini va bu xalqning tili, dili va xotirasida uzoq davrlardan beri mavjud bo‘lishi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, turk folkloridagi “Ko‘ro‘g‘li” hikoyalari, “Oshiq G‘arib”, “Tohir va Zuhra”, “Navro‘zbek”, “Xurshid va Mohimehri” kabi xalq dostonlarida uchrashi, uning tarixiy rivojlanish yo‘li nuqtayi nazaridan qaralganda juda ahamiyatlidir. [Alangu T. 4:167] Dostonlardagi kallar ertaklardagi kaldan farqli o‘laroq jangovarlik ruhini tashiydi. Ertaklardagi bu obraz esa kambag‘al kosib, podachi, yoki dehqon farzandi, ba‘zan yolg‘iz kampirning yolg‘iz o‘gli sifatida harakat qiladi va umumjamiyat, xalq harakatini ifodalaydi. Masalan, “Mamat kal” ertagida bu obraz kambag‘al dehqonning yolg‘iz o‘g‘li bir boynikida cho‘pon bo‘lib, xizmat qiladi. Ammo besh yilda ham o‘z xizmat haqini ololmaydi. Ertak oxirida esa kal nochor, kambag‘allarni ishlatib, ish haqini bermaydigan boyni ham, bevafo o‘gay onasini ham jazolaydi. Ertakda kalning tadbirkorlik, hiylakorlik sifatlari yoritilsa-da, jamiyatdagi mana shunday zulmkor boylarga, mehirsiz va bevafo o‘gay onalarga qarshi xuddi shu tarzda kurashish lozimligini uqtirayotgandek. Yoki xalq shunday illatlarga qarshi kurashishni istaydi va kal obraziga o‘ziga xos vazifalarni yuklab kurashayotgandek. Turk xalq ertagi bo‘lgan “Kalo‘glon va ikki shoh” ertagida Kalo‘glon mashhurlikka hech qanday da‘vosi bo‘lmagan, hatto juda oddiy obraz sifatida tasvirlangan. “Yetim va yolg‘iz, eski kiyimiga yamoq solingan, qo‘liga bir burda non beradigan biror kishisi yo‘q. U bir g‘arib boshi va yirtiq kiyimi bilan faqirlarcha kun kechiradi”. [Alangu T. 4:168] Aynan mana shu tasvir Kal obrazining jamiyatda tanilishi uchun bo‘rttirilgan eng mashhur tasvir. Shoh ovdan qaytayotib, Kalo‘glonning panjara oldida kuymalanayotganini ko‘rib qoladi va “Nima qilyapsan, ey Kalo‘glon, panjara ostida” deb so‘raydi. Shoh ilgari hech ko‘rmagan hatto birinchi marta uchratayotgan bu kambag‘al yigitchani bir qarashdayoq tanib, ismi bilan murojaat qiladi. Bu holatni ertakchi ko‘zdan qochirgan mantiqiy xato deya olmaymiz. Aksincha, bu “shon-shuhratsiz shon” deb atash mumkin bo‘lgan, dovrug‘ni qozongan – “Kal” qiyofasining ijtimoiy kelishuv orqali shakllangan umumiy obraz ekanini ko‘ramiz. Demak, bu obraz o‘zida umumiylik sifatini tashiydi. Ko‘rinib turibdiki, bu obraz faqatgina boshida sochi yo‘q, yoki kal bo‘lgani uchun shu nom bilan tanilmagan. Uning o‘ziga xos jihati – o‘zgarmas xarakter-xususiyati, voqealar va holatlar oldidagi tutumi hamda jamiyatning unga yuklagan vazifasidir. Shu nuqtayi nazardan, ertaklarda ko‘p uchraydigan kambag‘al, telba ko‘rinishdagi, biroq aqlli va epchil, ayniqsa, topqir yigit obrazi qahramonimiz xususiyatlarini aks ettiradi. Ertakda Kal o‘glonini shohgacha mashhur bo‘lgani uchun emas, balki ertak aytuvchisining shohni

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ham uni tanishga majbur qilgani uchun tanilgan obraz deyishimiz mumkin. Xalq o g‘zaki ijodida, xususan, dostonlardagi, ertaklardagi an’anaviy bosh qahramonlar jismonan baquvvat, kelishgan, favqulodda kuchlarga ega holida tasvirlanganligi sababli “Kal”, “Kalo‘glon” kabi xalq qahramonlari afsonaviy qahramonlar modelining soyasida qolib ketgan. “Kal” obrazining tug‘ilishi afsonaviy qahramonlar singari favqulodda hodisa tarzida tasvirlanmagan, aksincha, u oddiy bir dehqon bolasining hayoti bilan sahnaga chiqadi. Ertaklarda uning qanday tug‘iishi haqida hech narsa aytilmaydi va u shu qadar e’tiborsiz qoldirilganki, unga hatto ism ham berilmagan. Bolaligi qorong‘ulikda o‘tgan bu yigit, eng kambag‘al, eng faqir, eng ko‘rimsiz bo‘lsa-da, eng mard va tavakkalchi, aqlli va topqir qahramon obrazini mujassam etadi. Insonlar bu hayotga turli shart-sharoitda dunyoga keladilar. Hayot kimlar uchun gullab-yashnagan bir bog bo‘lsa, yana kimlar uchun tikanli yo‘l bo‘lishi mumkin. Ushbu “Kal” obrazidagi yigitning individuallik jarayoni ana shu tikanli yo‘llardan boshlanadi. Avvalo, u o‘zini tanishi va ichidagi “men”ini ochib berishi uchun barcha xususiyatlarini ishga solishi kerak. O‘zining sarguzashtlari davomida obrazga xos bo‘lgan ijobiy fazilatlar bilan birga qusurlarini ham namoyish etib boradi. Bu uning xatti-harakatida, nutqida yolg‘on ishlatish, hiylakorlik kabi salbiy belgilarni ham namoyish etib borishida namoyon bo‘ladi. Masalan, “Ayyor kal” ertagida o‘zining xiylagarligi, mehnati bilan bo‘rini qopga solishga muyassar bo‘lgan kal bo‘ri solingan qopini orqasida ortmoqlab kelayotsa bir boy – Orqandagi nima? – deb so‘raydi. Boylarni chuv tushirishga moyil qahramonimiz boshqa ertaklardagi kabi bu ertakda ham boyni laqqa tushiradi. – Bu juda ham katta qo‘chqor, men bu qo‘chqorni boqaverib, rosa semirtirib yubordim. Ko‘p semirganidan yurolmaydigan bo‘lib qoldi, shuning uchun bozorga sotgani ko‘tarib olib ketyapman, – debdi kal. – Qani qopingni och-chi, men qo‘chqoringni shu yerda ko‘ray, debdi boy. –Yo‘q xo‘jayin, men bu yerda uni ochib ko‘rsatgani qo‘rqaman. Agar chiqib ketsa, meni ham, sizni ham suzib o‘ldiradi, deya ikkinchi yolg‘oniga chippa chin ishontiradi. Qahramonimizning har bir vaziyatdan o‘zining hozirjavoblik bilan, yol g‘on bo‘lsa-da, topqirligi bilan chiqib ketishining guvohi bo‘lamiz. Yol g‘onchilik, ayyorlik komil shaxs sifati uchun yot bo‘lsa-da, ma’lum davr shart-sharoitida obraz uchun kurash vositasi vazifasini bajargan. Ammo qahramonimiz aldovlar-u, hiylakorlikni faqat zolim shohlar, razil, xasis boylar uchun, ilmsiz dindorlar uchun ishlatgan. U mana shu sifatlari bilan Aldar ko‘sa obrazidan ajralib turadi. Chunki o‘sha davr sharoitida boshqa chora va yo‘l topolmagan qahramon shunday usullar qo‘llab, vaziyatdan chiqishga, kerak bo‘lsa, g‘oliblik uchun kurashga otlanadi. Shunday

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

vaziyatni taqozo etgan ertak sifatida “Oltmish o g‘iz yol g‘on gap” [АВЗАЛОВ М. 6:136] ertagini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Ushbu ertakda kal qahramonimiz “yol g‘on” niqobida saroydagi holatni ayanchli tarzda ochib tashlaydi. Ertakda podshoh zakovatining no‘noqligi, qolaversa, o‘ta laqma ekanligi hikoya qilinadi. Podshoh jarchi qo‘yib: – Kimda kim oltmish o g‘iz yol g‘on gapirsa, shu hikoya bilan qizimni gapirtirsa, o‘shanga qizimni beraman, gapirtira olmasa, o‘ldiraman, degan xabar tarqatadi. Voqealar davomida ko‘p kishilar kelib, podshohning qizini gapirtira olmay, kallalari ketibdi, deyiladi. Bu bilan ertakdagi podshohning naqadar zulmkor va o‘zining tuban shartlarini bilan ma‘nan qusurli ekanligi ochib berilgan. Ammo vaziyat qarshisiga kal ro‘para qilinadi. Kal olti oy o‘ylab oltmish og‘iz yolg‘on gap ichiga 120 og‘iz yolg‘onni joylashtirib, yolg‘onlari oxirida “Ey, podshohim, hisoblab ko‘ring-chi, oltmish og‘iz yolg‘on gapingiz bir yuz yigirma og‘iz bo‘ldimi yoki yo‘qmi” deya podshoh tan olib javob berolmaydigan savol bilan yuzlanadi. Javobini tan ololmagan podshoh kalga: – Endi sen hech kim bilmaydigan hunar o‘rganib kel, agar topib kelmasang o‘lasan”, degan shart qo‘yadi. Bu bilan o‘sha zamonda podshoh va amaldorlarga qarshi xiyla, firib bilan javob qaytarmasa bo‘lmasligi ravshanlashadi. Bunday shartlar mavjud bo‘lgan ertaklar o‘zbek xalq ertakchiligida ko‘plab uchraydi. “Uch yolg‘onda qirq yolg‘on” ertagida ham xuddi shunday shart va qahramonning bu safar uch yolg‘onning ichida qirq yolg‘on to‘qishga majbur bo‘lganini uchratamiz. Ushbu ertakda esa qahramon zolim podshoh qizining sharti bo‘lgan uch yolg‘on ichida qirq yolg‘on to‘qishi uchun saroy amaldorlarini nishonga oladi. Amaldorlarning qahramonning yolg‘onlarini tan olishlaridan boshqa choralari qolmaydi. Yigit shartni buzdi, haqiqatni gapiryapti, deya olmaydilar. Bu bilan ikkiyuzlamachi insonlarning sifatlarini fosh etib, g‘azab to‘la kulgu ostida tanqid qiladi. Ammo shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tishimiz kerakki, ushbu “Uch yolg‘onda qirq yolg‘on” ertagining turli variantlari mavjudligi aniqlandi. [АВЗАЛОВ М. 7:89] Ya‘ni podshoh shartini bajarishga bel bog‘lagan yigit eski variantda kal obrazi sifatida gavdalansa, yangisida esa bir kambag‘al dehqonning yolg‘iz o‘g‘li deya tavsiflanadi. Ammo bunday holatni K. Imomov ba‘zi satirik ertaklarda bu qahramon hech qanday laqabsiz, nomsiz, sifat belgisi qo‘llangan holda goh “kambag‘al”, goh “xizmatkor” goho “donishmand yigit” shaklida talqin etilishini ta‘kidlagan. [ИМОМОВ К. 8:52] Qolaversa, Anadolu xalq og‘zaki ijodida turli nomlar bilan uchraydigan ertaklar mavjudligi ham har ikki millat folklorshunosligida bunday holatning mavjudligini isbotlaydi. Merich Harmanji bu xususda bir xil mazmundagi ertaklarning turli hududlarda turlicha nomlardagi qahramonlar bilan hikoya qilinishi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

xususida to‘xtalgan. Ya’ni bosh qahramoni kal obrazi xususiyatlarini o‘zida mujassam etsa-da, qahramon turli nomlar bilan atalgan. Masalan, xotini tomonidan aldangan tog‘asi uchun o‘ch oluvchi aqlli va jasur yigit haqidagi ertaklarda jiyan nomi ba’zi variantlarda Kalo‘glon bo‘lsa, boshqalarida esa turlicha nomlar bilan keladi. Yozgat viloyatida bu ertak qahramoni – jiyanning ismi Danjihello deb ataladi va ertak “Danjihello” nomi bilan tanilgan. [Önay Y. 9:334] “Eko bilan axloqsiz ayol” ertagidagi jiyan ismi esa Eko deb berilgan. [Kara R. 10:534] Erzinjan viloyatida esa jiyanning ismi Kechelja deb keltirilgan. [Kara R. 11:546] Karsada esa bu ertak “Kalo‘glan va amakisi” [Ali A. 12:470] nomi bilan tanilgan va amakisini aldashedan saqlagan jiyan qahramonimiz Kalo‘glanidir. Besni viloyatida “Kelo‘glan va Zilli yanga” [Korkmaz Y. 13:381] deb nomlangan ertakda amakisiga yordam berib, xotinning o‘yinini fosh qilgan qahramon yigit bir ko‘zi ko‘rmaydigan Kelo‘glanidir. Ushbu ertakning boshqa variantlari ham mavjud bo‘lib, yuqorida aytib o‘tganimizdek, har doim ham ertak Kelo‘glan nomiga asoslangan holda kelmaydi. Biroq nomlari turlicha bo‘lsa ham, qahramon Kelo‘glan tipiga xos xususiyatlarni namoyish etadi. Bu variantlardagi qahramonlarning ba’zilari Kelo‘glan deb atalmasligi esa mintaqaning bu tipga boshqa nom berganligi yoki Kelo‘glanning o‘sha mintaqada qahramon sifatida tanilmasligini anglatishi mumkin.

“Baxtli kal” ertagida esa ushbu yetakchi qahramon aynan kal timsolida gavdalantiriladi. Hech kimi yo‘q, kambag‘al, o‘tin terib kun ko‘ruvchi yigit bu obrazning portretini taskil etadi. Ushbu ertakda ko‘pgina ertaklarda bo‘lgani kabi o‘zining tadbirkorligi va uddaburonligi bilan gapidan tonadigan nomard shohni o‘z yolg‘onlari girdobida yondiradi. Ertakda podshoh buyrug‘i bilan kal o‘tda kuydiriladi. Ammo parilar yordami bilan tirik qolgan kal podshohga “men jannatga bordim. Ota-onangiz o‘sha joyda qovun yetishtirishayotgan ekan. Qovun sarhil pishibdi. Qovun sayliga sizni olib borishim uchun meni yubordilar” – deya podshohni yolg‘onga ishontirib kuydirib yuboradi. O‘zi esa yana parilar yordamida tirik qoladi. Saroy ahli uchun esa keyingi yolg‘onini ishlatadi. Qo‘lida bir maktub olib kelganini, maktubni podshoh berib yuborganini aytadi. Podshoh ota-onasi oldida jannatdan qaytgisi kelmagani va o‘rniga taxtga ushbu kal o‘tirishini aytib yuborganiga hammani ishontiradi va podshoh o‘rniga taxtga o‘tiradi.

Satirik ertaklarni tahlilga tortgan ertakshunos K. Imomov kal qahramoni haqidagi ertaklarda bu obraz kenja botir (Uch og‘a-ini botirlar) singari xalq qahramoni sifatida shoh darajasiga ko‘tarilib, taxtga o‘tirmaydi, – deydi. [Авзалов М. 14:384] Ammo ko‘pgina ertaklarda buning aksi o‘laroq ushbu “kal” ham

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qahramonliklar ko‘rsatib, podshohlik darajasiga ko‘tarilganini uchramiz. Masalan, “Vospiroxun” ertagida uchbu yetakchi obraz Oq podshoh va Qora podshoh o‘rtasidagi tuganmas urushni nihoyasiga yetkizadi. Ertakda hech nihoyasiga yetmayotgan jang uchun Oq podshoh dovyurak jangchi, polvon qidirtiradi. Bozorda shunday mard-u maydonni izlab yurgan vazirga Kal uchraydi: “– E, taqsir, o‘sha siz izlab yurgan polvon, er-sher odamingiz men bo‘laman, – deydi. Shunda vazir asosiy muddaoni aytib: – Agar sen qo‘rqoqlik qilib qochsang, tutib olib, shartta kallangni olaman, – degan shartiga Kal mardonavor javob qaytaradi: – Agarda men podshohning buyurganini qila olmasam, meni so‘yib, go‘shklarimni qiyma qilib, bozorda sarson qiling! – deydi. Podshoh esa kalni nazariga ilmay, salomiga alik olmay qarshi oladi va hali sen kalmi Qora podshoh bilan jangga kirib, mol-u dunyosi va qizini olib beradigan, ha, ha, hah, deb ustidan kuladi. Kal esa so‘zida qat‘iy turgach, podshoh: – Xo‘p, mayli, kal, sen agar urushda yengilib qolsang, u vaqtda seni o‘ldirib, go‘shtingni qiyma qildirib, bozorda sarson qilish u yoqda tursin, tanangni tegirmonga solib, un qilib, go‘shtingdan chuchvara pishirtirib, onangga berib, bozorda sottiraman, – deydi. Kal podshohga ta‘zim qilib, qo‘rqmay, botirlarcha javob qaytaradi: – Xo‘p, mayli, agar men yengilsam bilganingizni qiling! Bordi-yu, Qora podshohni yengsam, u vaqtda podshohning qizini o‘zim olaman. Shu shartimni men oldindan aytib qo‘yay!” – deydi. Shu parchaning o‘zi “Kal” obrazining dovyurakligi va jasurligini ko‘rsatib turibdi. Qahramonning juda ko‘p sarguzashtlari haqida hikoya qiluvchi ushbu ertak so‘nggida kal qahramonini sevib tinglovchi qalbiga huzur yuguradi. Qahramonlik dostonlarini eslatadigan yakundan quvonadi: “Shunday qilib, Qora podshohni yenggan bizning kal podshohning nabirasi ikki mamlakatning podshohligini so‘raydi. Murod-maqсадiga, soqoli ko‘ksiga yetadi”. [Авзалов М. 15:211]

“Sinchu kal” ertagida esa ushbu qahramon o‘z topqirligi bilan podshohni lol qoldiradi. Avvaliga podshohlikdagi otlar ichidan tulporni topib bergan kal, podshoh bilan suhbatdan so‘ng uning aslida podshozoda emasligini ham aniq topib aytadi. Podshoh kalning topqirligiga yana bir marta qoyil qolib, uni o‘ziga vazir qilib olgan ekan. Podshoh o‘lganidan keyin esa uning o‘rniga kal podshoh bo‘lib murod-maqсадiga yetibdi. Dong‘i butun Nomongondan o‘tib, Dog‘istonga yetibdi deyiladi. [15:34]

Yuqoridagi ertaklarda ko‘rib turganimizdek, ushbu “kal” nomi xalqimiz tomonidan laqab sifatida qabul qilingan. Ertaklarda bu obraz shunchaki “kal” laqabi bilan nomlanadi. Kamdan kam ertaklarda ismiga qo‘shimcha bo‘lib ishlatilingan.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Masalan: “Mamat kal”, “Nosir kal” va h. Ammo tarixdan ko‘rishimiz mumkinki, ushbu laqabga nisbatan ikki xil munosabat bo‘lgan. Ya’ni ertaklarda qo‘rqmas, jasur, tavakkalchi va tadbirli qahramon sifatida namoyon bo‘lgani uchun oddiy xalq “kal” laqabini ijobiy qabul qilgan. Bunday laqab ma’naviy kurashlarda g‘alabaga erishishda kuch bag‘ishlash uchun berilgan. Ammo yuqori sinf vakillari tashqi ko‘rinishi ko‘rimsiz va kambag‘al, kelib chiqishi esa past oilaga borib taqalishi jihatidan kamsitish va tahqirlash maqsadida ushbu laqabni ishlatgan. Ammo tadqiqotchilarimiz bu laqab bilan sozlangan obrazni komik qahramon sifatida tahlilga tortadilar. “Kal” laqabli qahramon yetakchi bo‘lgan ertaklarni tahlili ushbu qahramon podsho, vazir, eshon, mullalar va boylar bilan to‘qnashuvlarda g‘alaba qozonishini ko‘rsatdi. Hatto o‘limni ham yengadi (“Baxtli kal”, “Podshoh bilan kal”, “Vospiroxun” ertaklari bunga misol). Shuning uchun xalq og‘zaki ijodida ushbu sodda, lekin qo‘rqmas “kal” obraziga xalq istak-xohishlari, yomonlik, zulm, haqsizlik, adolatsizlikni yengib chiqishga bo‘lgan ishonchi yuklanadi.

“Turk ertaklarida “Kal” tipi” mavzusida tadqiqotlarini olib borgan Merich Harmanji xalq o‘g‘zaki ijodi janrlarining qaysi turi bo‘lishidan qat’i nazar unda har doim xalq o‘z tasavvuridagi adolat va haqiqat uchun kurashuvchi qahramonlarni yaratib kelgandir, deydi. Ammo davr sharoitlari o‘zgargan sari xalq o‘ziga qarshi chiqayotgan hukmron kuchlarga noroziligini bildirish va mahalliy qadriyatlarini tashviqot qilish maqsadida yumshoqroq xarakterlar yarata boshlaydi. Bunda nishon to‘g‘ridan to‘g‘ri tuzumga qarshi yoki hukmron qatlamga qarshi ko‘rsatilmaydi, balki ularning nohaq g‘azabiga duchor bo‘maslik uchun vaqtinchalik qahramonlar yaratiladi. Bu qahramonlar o‘sha o‘tish davridagi nozik siyosat mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shu vaqtinchalik qahramonlardan biri bo‘lgan “Kal” obrazi podshoh yoki hukmron qatlam bilan jangga kirishmaydi, ularga qarshi kurashmaydi. Dastlab bu obraz axmoqona deb baholangan o‘ziga xos uslub bilan harakatlanadi, ya’ni qon to‘kmasdan, hech qanday janglarsiz, raqiblarini ayyorona mag‘lub etishga urinadi. Katta-katta qo‘shin erisha olmaydigan g‘alabalarga u ko‘pincha kulguli va bolalarga xos o‘yinlar vositasida erishadi. Ushbu o‘yin tarzidagi hiylakor syujet shunchalik mahorat bilan tuziladiki, agar e’tibor bilan sinchiklab o‘qilmasa, asl mohiyatni anglash mushkul va sirli ko‘rinadi. Chunki ertak yaratuvchisi bo‘lgan xalq tinglovchilarning e’tiborini, asosan, kal qahramonning noodatiy qiliqlariga, kulguli vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi hazillariga qaratadi. Shuning uchun ertak juda muhim vazifalarni bajargan bo‘lsa-da, hech kimning tinchini buzmaydi, [Harmaanji M. 16:14] deya ushbu obraz tashida hazil-mutoyibaga moyil komik qahramon

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

sifatida ko‘rsatilsa-da, aslida mohiyatan xalq qalbidagi og‘riq, nafrat, kurash ifodasi bo‘lib tug‘ilganini ta’kidlaydi olim. Shuning uchun ayta olamizki, “kal” haqidagi ertaklarda bir tomondan uning sarguzashtlari hikoya qilinsa, boshqa tomondan o‘sha davrga tutilgan bir oynadir. Kal haqidagi ertaklarda bu obrazning eng muhim vazifasi – yovuzlar va kuchlilar bilan kurashish va oxir-oqibat kutilmagan muvaffaqiyatlarga erishishdir. Turk xalq ertak an‘analaridalarida Kalo‘g‘lon shu darajada muhim o‘rin egallaydiki, hatto shahzodalar ham o‘z nasl-nasabidan kechib, hayoti uchun kurashni yoki umuman umrini boshidan boshlashni xohlab qolganida, qiyinchiliklarga qarshi turish va kamsitilgan yigit qiyofasiga kirishga majbur bo‘lganida Kal qiyofasiga kirishga jazm qiladilar.

Xalq og‘zaki ijodida badiiy obraz xalq ongining in‘ikosidir. Ijodkor xalq vakili jamiyatdagi muammolarni idrok etadi. Sehrli ertaklarda xalq ijodkori tasavvur olamiga erkinlik berib, hayotdagi yomon insonlarni devlar, ajdaholar, yalmog‘izlar qiyofasida gavdalantirgan bo‘lsa, orzusidagi komil shaxslar timsolini esa pahlavonlar-u, Kenja botirlar, donishmand chol, Xizr, parilar-u dono qizlar misolida ko‘radi. Muammolariga yechimni “kal” timsoliga o‘xshash obrazlarga yuklaydi. Ertaklardagi obrazlar tizimi orqali xalq muammolar yuzasidan o‘zining fikr va mushohadasini shakllantiradi. Bunga folklorshunos olim J. Eshonqulov eng asosli fikr bilan munosabat bildiradi. “Xalq og‘zaki ijodi obrazlarini o‘rganish xalqni, insonni o‘rganishning aynan o‘zidir. Zero, ilk paydo bo‘lgan mifdan tortib, eng so‘nggi paytlarda yaratilgan asarlargacha faqat inson o‘rganilgan, inson tadqiq etilgan”. [Эшонкулов Ж. 17:121]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Имомов К. Ўзбек сатирик эртаклари. – Т.; 1974. – Б. 51
2. Эргаш Жуманбулбул ўғли. Гўрўғли дostonлари. Қундуз билан Юлдуз. – Тошкент, 1963. – 57-бет.
3. Эргаш Жуманбулбул ўғли. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Биринчи жилд. – Т., 1971. – Б. 195
4. Tahir Alangu, Keloğlan Masalları, Istanbul: Yaylacık Yayınları, 1967. – S. 167.
5. Tahir Alangu, Kelo‘glon ertaklari. – Istanbul. Afa nashriyoti, 1990. – B. 168.
6. Ўзбек халқ эртаклари. Икки жилдлик. II жилд / Тузувчилар: М.Афзалов, Х.Расулов, З.Хусаинова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1996. – 320 б.
7. Ўзбек халқ эртаклари. – Тошкент, 1939, 89-бет.; “o‘zbek xalq ertaklari” II jild.
8. Имомов К. Ўзбек сатирик эртаклари. – Т.; 1974. – Б. 52
9. Yılmaz Önay. Van Masalları Üzerine Bir Araştırma (Basılmamış Doktora Tezi, Yüzüncü Yıl Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1995). – SS. 334-340.
10. Yılmaz Önay, a.g.e., – SS. 341-346.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

11. Ruhi Kara. Erzincan Masalları: Metinler ve Dncelemeler. Basılmamış Doktora Tezi, Atatürk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 1996. – SS. 546-553.
12. Ahmet Ali Arslan, Kuzey Doğu Anadolu (Kars) Türk ve Kuzey Britanya Halk Edebiyatlarında Masallar, 2. cilt, Ankara: AKM Yayınları, 2000. – SS. 470-473.
13. Yalçın Korkmaz. Besni Masallarının Sözlü Kompozisyon Teorisine Göre Dncelenmesi. Basılmamış Yüksek Lisans Tezi, Gaziantep Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2005. – SS. 381-384.
14. O'zbek xalq ertaklari. 3 jildlik. II jild / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 384 b.
15. Гул пари. Наманган эртаклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1969. – 376 б.
16. Meriç Harmancı. Turk masallarında kelo'g'lan tipi // Turk dili ve edebiyati anabilimdali. – Izmit, 2010. – S.14
17. Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 121.